



**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA
XALQARO BAHOLASH TAJRIBASI:
MUAMMO, YECHIMLAR VA
ISTIQBOLLAR**

**XALQARO ILMIIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**

Buxoro, 2022-yil, 29-mart

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ
БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ

БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ХАЛҚАРО
БАҲОЛАШ ТАЖРИБАСИ: МУАММО, ЕЧИМЛАР
ВА ИСТИҚБОЛЛАР

ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН

МАТЕРИАЛЛАРИ

2022 йил, 29 март

I мий анжуманнинг дастурий кўмитаси

- | | |
|---------------|--|
| О. Х.Хамидов | – Бухоро давлат университети ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор, раис. |
| О.С.Қахҳоров | – илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини. |
| Ў.У. Рашидов | – молия ва иқтисод ишлари бўйича проректор, аъзо. |
| Қ.Р.Тўхсонов | – мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, аъзо. |
| Ю.Ю.Азимов | – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| Н.О. Сафарова | – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| А.Р.Ҳамроев | – бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо. |
| Ю.А. Пўлотова | – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, котиб. |

Илмий анжуманнинг ташкилий кўмитаси

- | | |
|----------------|--|
| О.С.Қахҳоров | – Бухоро давлат университети илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини. |
| Қ.Р.Тўхсонов | – мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, раис муовини. |
| Г.Т. Зарипов | – ИТ, И ва ИПКТБ бўлими бошлиғи, аъзо. |
| Ю.Ю.Азимов | – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| Н.О. Сафарова | – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| А.Р.Ҳамроев | – бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо. |
| Ф.М.Қосимов | – бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо. |
| Ғ.М.Сайфуллаев | – бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо. |
| Н.Б.Адизова | – бошланғич таълим методикаси кафедраси катта ўқитувчиси, аъзо. |
| Р.А.Кўлдошев | – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо. |
| Р.Х.Жумаев | – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо. |

Тўплам Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 мартдаги 101-ф-сонли фармойиши билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасида 2022 йилда халқаро ва республика миқёсида ўтказиладиган илмий ва илмий-техник тадбирлар режасида белгиланган тадбирларнинг бажарилиши мақсадида 2022 йил 29 март куни Бухоро давлат университети Бошланғич таълим методикаси кафедрасида “Бошланғич таълимда халқаро баҳолаш тажрибаси: муаммо, ечимлар ва истикболлар” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари асосида тузилди.

Масъул муҳаррир:

А.Р.Ҳамроев, педагогика фанлари доктори, доцент

Такризчилар:

Б.Р.Адизов, педагогика фанлари доктори, профессор

Ю.Ю.Азимов, филология фанлари номзоди, доцент

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Chunki sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptiradi. Turli kasalliklar, yoshlar o'rtasida zararli odatlarning oldini oladi. Sport yuksak madaniyat, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha yurtdoshlarga g'urur-iftixor bag'ishlaydi.

Mustaqillik yillarida bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Shahar va qishloqlarda zamonaviy sport komplekslari bunyod etildi. "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va Universiada musobaqalari yoshlarni ommaviy sportga, sog'lom turmush tarziga oshno qilish vositasiga aylandi.

Iste'dodli bolalarni tanlash va professional sportchilarni tayyorlash bo'yicha uzluksiz tizim yaratildi. Umumta'lim maktablari va bolalar sport majmualaridagi mashg'ulotlarda qobiliyati ko'zga tashlangan o'g'il-qizlar bolalar va o'smirlar sport maktablari, sport kollejariga olinib, professional yondashuvlar asosida tarbiyalanmoqda. Oliy o'quv yurtlari va o'quv-yig'in mashg'ulotlarida mahoratini oshirmoqda.

Buning natijasida mamlakatimiz sportchilari jahonning nufuzli musobaqalarida yuksak g'alabalarni qo'lga kiritib, xalqimiz salohiyatini butun dunyoga namoyon qilmoqda. Xususan, sportchilarimiz 2020-yili Tokio olimpiya o'yilarida 3 ta oltin olinishi Paralimpiya o'yinlaridagi kata natijalar 8 ta oltin medal yutib olinishi ma'lum bir darajada sport murabbiylarining kata va mashaqatli etik mehnatini ko'rsatib turmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 15-fevraldagi «Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni mamlakatimiz sporti rivojida yangi davrni boshlab berdi. Farmonga binoan O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil qilindi. Aholi keng qatlamini sport bilan shug'ullanishga jalb etish, jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash, sport industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish, shahar va tumanlarda ommaviy sport tadbirlari va musobaqalar o'tkazish, Milliy olimpiya qo'mitasi, sport turlari bo'yicha federatsiyalar va assotsiatsiyalar bilan birgalikda iste'dodli sportchilarni tanlash, tayyorlash va mahoratini oshirish, kadrlar tayyorlash, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro aloqalarni kengaytirish uning asosiy vazifalari etib belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salixov.Sh. va boshq. Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
2. Salixov.Sh va boshq. Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.

BO'LAJAK CHEMPION SPORTCHILARNI TAYYORLASHDA ULARNING TEMPERAMENTAL SIFATLARINI O'RGANISH

Sh. M. Salixov, BuxDU o'qituvchisi

T. M. Salixov, BuxDU o'qituvchisi

Mazkur maqolada bo'lajak sportchi chempionlarni tayyorlashda ularning individual-psixologik sifatlarini o'rganish ya'ni temperamental sifatlarini o'rganish alohida o'rin talab etadi. Eng avvalo temperament bu inson xarakter sifatlaridir, har bir sportchining kelajakda yetuk natijalarga erishishiga asosiy omil bo'lib uning xarakter sifatlari xizmat qilishi haqida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *Sport murabbiysi, sport faoliyati, jismoniy tarbiya, Temperament, sport psixologiyasi, sport yutuqlari. xarakter sifatlari.*

In this article, the study of individual-psychological qualities, ie the study of temperamental qualities, requires a special place in the preparation of future athletes champions. First of all, temperament is a human character trait, and it is revealed that the character traits of each athlete will be a key factor in achieving great results in the future.

Keywords: *Sports coach, sports activities, physical education, temperament, sports psychology, sports achievements. character traits.*

В данной статье изучение индивидуально-психологических качеств, т.е. изучение качеств темперамента, требует особого места в подготовке будущих спортсменов-чемпионов. Прежде

всего, темперамент является чертой характера человека, и выявлено, что черты характера каждого спортсмена будут ключевым фактором в достижении высоких результатов в будущем.

Ключевые слова: *спортивный тренер, спортивная деятельность, физическое воспитание, темперамент, спортивная психология, спортивные достижения. Черты характера.*

Odamlar o'rtasidagi individual-psixologik tafovutlarda psixikaning dinamik deb atalmish xususiyatlari muxim urin egallaydi. Eng avvalo psixik jarayonlar va holatlar intensivligi darajasi, shuningdek, ularning u yoki bu tezlikda kechishi nazarda tutiladi. Ma'lumki, odamlar xulq-atvor va faoliyat motivlari nisbatan teng bo'lganda, bir xil tashqi ta'sir etganda, bir-biridan ta'sirchanligiga va kursatayotgan energiyasiga ko'ra sezilarli darajada farq qiladilar. Jumladan, bir xil kishi sekinlikni, boshqasi shoshilishni yoqtiradi, bir xil odamlarga hissiyotlarning tez uyg'onishi xos bo'lsa, boshqasiga esa sovuqqonlik xosdir, boshqa birovni keskin imo-ishoralar, ma'noli mimika, boshqasini harakatlarda og'ir-bosiqlik, yuzining juda ham kam harakat kilishi ajratib turadi. Harakatlanish xususiyatlariga qarab farqlanishlar har qanday teng sharoitlarda individning umumiy faolligi, uning harakatchanligi va uning emotsionalligiga binoan yuz beradi.

Kishining harakatlardagi o'zgarishi tabiiy ravishda ko'pincha tarbiyalangan ustanovkalar (ko'rsatmalar) va odatlarga, vaziyatning talabiga va shu kabilarga bog'liq bo'ladi. Ammo, so'z yuritilayotgan individual farqlar o'zlarining tug'ma asosiga ega bo'lishi shubhasizdir. Bu shu narsa bilan tasdiklanadiki, bunday farqlar bolaligidayok ma'lum bula boshlaydi, xulq-atvorning va faoliyatning turli sohalarida ko'rinadi va alohida barkarorligi bilan ajralib turadi.

Temperament lotin tilidagi «temperamentum» so'zidan olingan bo'lib, aralashma, qorishiq degan ma'nolarni anglatadi. Temperament tiplarining nomlari ham ana shu suyuqliklardan kelib chiqqan. Masalan, xolerik grekcha «xole» so'zidan olingan bo'lib, o't yoki safro, sangvinik «sandus» so'zidan olingan bo'lib, qon demakdir; melanxolik grekcha «melanxole» so'zidan olingan bo'lib, qora o't demakdir; flegmatik grekcha «plegma» so'zidan olingan bo'lib, balg'am, shilimshiq modda demakdir.

Yuqoridagi suyuqliklarning har biri o'z xususiyatiga ega bo'lib, harbirining o'z vazifasi, o'z ishi bor. Chunonchi, o'tning xususiyati quruqlikdir. Uning ishi – organizmdagi quruqlikni saqlab turish – badanni quruq to'tishdir. Qonning xususiyati issiqlik bo'lib, ishi organizmni isitib turishdir. Qora o'tning xususiyati namlik bo'lib, ishi badanning namligini tutib turishdir. Balg'amning xususiyati suyuqlik bo'lib, ishi badanni sovutib turishdir.

Gippokratning temperament va uning tiplariga oid ta'limoti qadiimgi zamonlardan bizning davrimizgacha saqlanib kelayotgan bo'lsa ham hech qanday ilmiy asosga ega emas.

Temperament va uning tiplari haqidagi mukammal ilmiy nazariyani mashhur rus psixologi, akdaemik I.P.Pavlov yaratgan va bu sohada «Nerv sistemasining tiplari» nomli ta'limotini kashf etdi. I.P.Pavlov asab sistemasining kuchli, muvozanatsiz, sust (xolerik temperamentga asos bo'lgan), kuchli, muvozanatli, epchil (sangvinik), kuchsiz (melanxolik), kuchli, muvozanatli, sust (flegmatik) kabi to'rtta umumiy tipini aniqladi.

Asab sistemasining ko'chi qo'zg'alish jarayoniga ham, tormozlanish jarayoniga ham taalluqli bo'lib, kuchliqo'zg'ovchilarg bardosh bera olish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Xuddi shuning singari asab sistemasidagi muvozanat asab sistemasining qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining kuch darajasini baravar tutib tura bilishda ko'rinadi. Qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari baravar darajada kuchli yoki kuchsiz bo'lganda, asab sistemasida muvozanat bo'ladi. Agar qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlaridan biri kuchliroq yoki kuchsizroq bo'lsa, asab sistemasida muvozanat bo'lmaydi.

Favqulodda temperamentning bir xil xususiyatlari, motiv, psixik holat va hodisalardan farqli o'laroq, ayian shu shaxsning o'zida, uning turli faoliyatlarida, xatti-harakatlarida, muomalasida ifodalanadi.

Temperament xususiyatlari deganda, alohida bir shaxsning psixik faoliyati dinamikasini belgilovchi psixikaning barqaror, o'zgarmas individual-tipologik xususiyatlari majmuasi tushuniladi. Mazkur xususiyatlar turli shakl va mazmunga ega bo'lgan motivlarda, psixik holatlarda, maqsadlarda, faoliyatlardan isbatan o'zgarmovchi, temperament tipini tavsiflovchi tuzilmani tashkil qiladi.

Shunday qilib, shaxsdagi hatti-harakatlarning, imo-ishoralarning aniq va ravshanligi, hissiy holatlarning qo'zg'alish ko'chi, barqaror va beqarorligida namoyon bo'ladigan individual sifat temperament yoki mijoz, deb aytiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

3. Salixov.Sh. va boshq. Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.

G. M. Sayfullayev, F. Yodgorov, 3 - SINFDA TABIATSHUNOSLIKNI O'QITISHDA TA'LIMNING INTERFAOL METODLARIDAN FOYDALANISH.....	97
Бабаева Ш.Б., МЕТОДЫ МОДЕЛИРОВАНИЯ СИНТАКТИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА.....	99
А.И.Бахронова, М.Садирова, БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРНИ АХЛОҚИЙ ТАРБИЯЛАШГА ТАЙЁРЛАШДА ДАРСДАН ТАШҚАРИ МАШҒУЛОТЛАРНИНГ ОЛИБ БОРИЛИШИ	101
Д. Р.Носирова, ИНТЕГРИРОВАННОЕ ОБУЧЕНИЕ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ С УЧЕТОМ РЕГИОНАЛЬНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ.....	103
Узакова А.Б., Рохатова З.И. РАБОТА С ТЕКСТОМ ПРИ РАЗВИТИИ РЕЧИ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРНОГО ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ.....	105
G. M. Sayfullayev, D. Sattorova. ATROF TABIAT BILAN TANISHTIRISH JARAYONIDA BOLALARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	107
G'. M. Sayfullayev, I. Temirova, BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING TARIXIYLIGI	108
G. M. Sayfullayev, S. Namozova, SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	110
M. A. Ibragimova, M. S. Ernazarova. BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILAR IMLOVIY SAVODXONLIGINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Салаева Муборак Сабуровна, Павлова Мария Владимировна. АРТ-ТЕРАПИЯ КАК СРЕДСТВО ГАРМОНИЗАЦИИ И РАЗВИТИЯ ПСИХИКИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ.....	113
G. E. Saidova, BOSHLANG'ICH SINFLARDA МАТЕМАТИКА O'QITISHDA ZAMONAVIY DARS SHAKLLARI	116
F. Boboxonova, NUTQIY ODOB, NUTQ JARAYONIDA TO'G'RI VA MANFAATLI SO'Z QO'LLASH SAN'ATI	117
F.M. Qosimov, M.M. Qosimov. МАТЕМАТИКА DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH – TA'LIM SAMARADORLINI OSHIRISH OMILI.....	119
Sidiqova, MASOFAVIY TA'LIM SHAROITIDA TALABALARNING BILIM OLISHDAGI IMKONIYATLAR	121
D.A. Ubaydullayeva, OILADA YOSHLARNING KASBIY IJTIMOYLAHVINI TA'MINLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	122
N.B.Adizova, D. Husenova. BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARI FAOLIYATIDA TEXNOLOGIK YONDOSHUVNING O'ZIGA XOSLIGI	125
M. F. Ibrohimova. BOSHLANG'ICH SINIF МАТЕМАТИКА DARSLARIDA MANTIQIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	127
N. B. Adizova, M. M. Fattullayeva. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ERTAK O'QITISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI.....	128
Ю.К.Кушназарова. КУЛЬТУРА МЫШЛЕНИЯ СПЕЦИАЛИСТА КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА: СРЕДСТВА И УСЛОВИЯ ЕЕ РАЗВИТИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	129
G.Bomurodova. MILLIY QADRIYATLAR NEGIZIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI PEDAGOGIK QARASHLAR	134
М. Дж. Хайдарова. БОШЛАНҒИЧ СИНФ УҚУВЧИЛАРИНИ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ИНДИВИДУАЛ ЁНДАШУВНИ ТАТБИҚ ЭТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	135
Dzhamashova Gulnur Ablakhatovna, Dzhumayev Mamanazar Irgashevich. TECHNOLOGY OF EDUCATION SYSTEM AESTHETIC REQUIREMENTS OF STUDENTS	138
G. Eshqulova, D.B. Axmedova. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA LATIFALARNI O'RGANISHNING AHAMIYATI	139
Sh. Baxriddinova, M.Y. Ro'ziyeva. O'QUVCHILAR BILIM SIFATINI OSHIRISHDA GURUH INTIZOMINING O'RNI.....	141
Sh. M. Salixov, SPORT MURABBIYLARINI TAYYORLASHDA ETIKA MASALALARI	143
Sh. M. Salixov, T. M. Salixov, BO'LAJAK CHEMPION SPORTCHILARNI TAYYORLASHDA ULARNING TEMPERAMENTAL SIFATLARINI O'RGANISH.....	144
A. F. Qosimova, BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	146